



O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA JONLI VA JONSIZ PREDMETLARNI ANGLATUVCHI OTLAR QIYOSI

Usanova Qadamay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti o'zga tili guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi
1-bosqich talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8004462>

ARTICLE INFO

Received: 27th May 2023
Accepted: 02nd June 2023
Online: 03rd June 2023

KEY WORDS

Jonli, jonsiz, predmet, olmosh, ot, kategoriya, rod, son, narsa, hodisa, so'roq, voqea.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida jonli va jonsiz predmetlarni anglatuvchi otlarning qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma'nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma'nosi turli-tuman bo'lib, u jonli predmetlarni (*it-sobaka-iyt, mushuk-koшка-pishiq*) (*bola-ребёнок-bala, qush-птица-qus*), narsa, predmet va hodisalarni (*sut-молоко-su't*), (*yomg'ir-дождь-jawin*), (*daftar-тепрадъ-da'pter, kitob-книга-kitap*), (*majlis-собрание-jiynahs*) ataydi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, o'zbek va qoraqalpoq tilida rod kategoriyasi hamda jonlilik va jonsizlik kategoriyasi mavjud emas. Shuning uchun o'zbek tilida **kim? nima?** qoraqalpoq tilida **kim? ne?** so'roq olmoshlarining qo'llanishi ham rus tilidagidan ancha farq qiladi. Bunda **kim?** so'roq olmoshi kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Boshqa hollarda esa **nima?** so'roq olmoshi qo'llaniladi.

Ot turkumidagi so'zlarning bunday guruhlarga ajratilishining boisi, kelishiklar bo'yicha turlanganda, jonli otlar bilan jonsiz otlar o'rtasida ma'lum grammatik tafovutlar yuzaga keladi. Masalan, jonli predmetlarning tushum kelishigidagi so'rog'i ularning qaratqich kelishigidagi so'rog'iga, jonsiz predmetlarning tushum kelishigidagi so'rog'i esa bosh kelishikdagi so'rog'iga muvofiq keladi¹.

O'zbek tilidagi otlarni esa jonli va jonsiz predmetlar guruhiga ajratish uchun hech qanday grammatik asos yo'q. Har ikki tilda ham oltita kelishik mavjud bo'lib, otlar ana shu kelishiklar bo'yicha turlanadi.

Rus tilidagi otlar bu jihatdan o'zbek va qoraqalpoq tilidagi otlardan farq qiladi. Rus tilida otlar jonli predmetlarni yoki jonsiz predmetlarni anglatishiga qarab ikki guruhga ajratiladi². Rus tilida **кто?** so'roq olmoshi jonli predmetlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan: Это кто? – Это мама, бабушка, сестра, брат, курица, муравей kabi. **Что?** so'roq olmoshi esa barcha jonsiz predmetlarga, voqea va hodisa nomlariga nisbatan ishlatiladi. Masalan: Это что? – Это

¹ file:///C:/Users/User/Downloads/toxliyeva-m.s.-ozbek-va-rus-tillaridagi-ot-soz-turkumiga-xos-grammatik-shakllarning-qiyosiy-tipologiyasi.pdf

² Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 23.



город, деревня, тетрадь, ручка, язык, собрание, река, молния, вулкан, земля, камень, радость kabi.

Jonli va jonsiz predmetdagi otlarning bir-biridan farqi ularning tushum kelishigi formasida ko'rinadi, jonli predmetni anglatuvchi otlarning tushum kelishigi formasi qaratqich kelishigi formasi bilan bir xil bo'ladi, jonsiz predmetlarni anglatuvchi otlarning tushum kelishigi formasi esa bosh kelishik formasi bilan bir xil bo'ladi. Masalan: Принёс петуха, голубя; карандаш, камень. – Хо'roz(kaptar) qalam tosh olib keldi. – Qoraz(kepter) qa'lem, tas alip keldi.

Jonli predmetlarni yoki jonsiz predmetlarni anglatuvchi otlarning tushum kelishigi formasidagi farq turli hollarda turlicha bo'ladi³. Quyida ularning farqini misollar tariqasida rus, o'zbek va qoraqalpoq tillarida ko'rib chiqamiz.

1. Мужский rod otlarining farqi birlikda ham, ko'plikda ham ko'rinadi. Masalan:

Видел студента – men talabani ko'rdim – men studentti ko'rdim. Видел студентов – U talabalarni ko'rdi – Ol studentlerdi ko'rdi. Видел стол – Men stolni ko'rdim – Men stoldi ko'rdim. Видел столы – Men stollarni ko'rdim – Men stollardi ko'rdim.

2. Женский rod otlarining farqi faqat ko'plikda ko'rinadi. Masalan:

Видел девушек – Men qizlarni ko'rdim – Men qizlardi ko'rdim. Видел берёзы – Men qayinlarni ko'rdim. – Men qa'yinlerdi ko'rdim. Видел вишни – Men gilosni ko'rdim – Men shiyeni ko'rdim. Birlikda esa bunday otlarning tushum kelishigi bir xil shaklda bo'ladi va –y yoki –ю tugallanmasini qabul qiladi va o'zbek va qoraqalpoq tillariga tarjima qilganda ularning ma'nosi o'zgarmaydi. Masalan: Видел девушку - Men qizni ko'rdim – Men qizdi ko'rdim. Видел берёзу – Men qayinni ko'rdim. – Men qa'yindi ko'rdim. Видел вишню – Men gilosni ko'rdim – Men shiyeni ko'rdim. Oxirida yumshatish belgisi bo'lgan женский rod otlari ham faqat ko'plikda farq qiladi. Birlikda esa ularning tushum kelishigi formasi bir xilda bo'ladi. Masalan: Кошка ловит мышей – Mushuk sichqonlarni ushlaydi – Pishiq tushqanlardi uslaydi. - Кошка ловит мышь – Mushuk sichqonni ushlaydi – Pishiq tushqandi uslaydi. Отец любить дочерей – Ota qizlarini yaxshi ko'radi – A'ke qizlarin jaqsi ko'redi. Отец любить дочь – Otasi qizini yaxshi ko'radi - A'kesi qizin jaqsi ko'redi.

Qoraqalpoq tilidagi otlar jonli va jonsiz bo'lib ajratilmaydi. Shuning uchun rus tilidagidek grammatik o'zgarishlarga uchramaydi. Jonli va jonsiz predmetdagi otlar qoraqalpoq tilida barcha kelishiklarda bir xil turlanadi.

Qoraqalpoq tilida **kim?** so'roq olmoshi faqat shaxsni bildiradigan otlarga nisbatan ishlatiladi. Bunday otlar egalik kategoriyasida turlanadi. Shuning uchun **betlik atliqlar** deb nomlanadi. Masalan: Men studentpen, sen studentsen', ol student. Qoraqalpoq tilidagi **ne?** so'roq olmoshi esa odamnan boshqa barcha jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan ishlatiladi. Ular egalik kategoriyasida turlanmaydi, shuning uchun ham **betlik emes atliqlar** deb nomlanadi⁴. Masalan: jolbaris, siyir, arislan, qa'lem va boshqalar. Ba'zi joylarda bu otlar ham, jumladan, ko'chma ma'noda qo'llangan paytda turlanishi mumkin. Masalan: Atsan' ha'm qanatsan' sen adamlarg'a (I.Yusupov) – Ты скакун и крылья для людей. – Otsang va qanotsang sen odamlarga.

³O'sha asar – B. 23.

⁴ Bekbergenov A. Rus ha'm qoraqalpoq tillerinin' salistirmali grammatikasi. No'kis. 1995. – B.35.



Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, rus tilida bor bo'lgan jonlilik va jonsizlik kategoriyasi o'zbek va qoraqalpoq tillarida mavjud emas. O'zbek va qoraqalpoq tillarida jonli va jonsiz predmetlar guruhi bo'lib turlarga ajratilmaydi. Chunki bu tillarda jonli va jonsiz predmetlar guruhiga ajratish uchun hech qanday grammatik asos yo'q. Har ikki tilda ham oltita kelishik mavjud bo'lib, otlar ana shu kelishiklar bo'yicha turlanadi. Rus tilida кто? so'roq olmoshi jonli predmetlarga qo'yilsa, o'zbek va qoraqalpoq tillarida esa faqat shaxsni bildiradigan otlarga qo'yiladi. Rus tilida что? so'roq olmoshi jonsiz predmetlarga, voqea va hodisa nomlariga nisbatan ishlatilsa, o'zbek va qoraqalpoq tillarida shaxsni bildiruvchi otlardan tashqari barcha jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu o'z navbatida o'zbek va rus tillarini, rus va qoraqalpoq tillarini qiyoslab o'rganishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

References:

1. Azizov O va boshqalar O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent.1965.
2. Azizov O. Safaev A. Jamolxonov. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent.1986.
3. Bekbergenov A. Rus ha'm qoraqalpoq tillerinin' salıstırmalı grammatikasi. No'kis. 1995.